



OTA OBRAZINING YANGICHA TALQINI

Uralova Dilnoza Murodilla qizi

<https://orcid.org/0009-0009-2662-7868>

+998937981021 dilnozaqochqorova86@gmail.com

– FarDu 3-kurs tayanch doktoranti

filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD) Javoxir Sayidolimov taqrizi asosida

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684535>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14- Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 17- Iyun 2025 yil

KEYWORDS

obraz, uslub, yozuvchi, portret, timsol, ma'naviyat, moddiyat, ramz, qahramon, syujet.

ABSTRACT

Badiiy adabiyotda ota obrazi an'anaviy obrazlardan biri hisoblanadi. Antik davrlardan tortib shu davrlargacha ota obraziga oid durdona asarlar yaratilgan. Jahon adabiyotida otalar obrazi muhim o'rin egllaydi. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida o'zbek otalarining chinakam timsoli aks etgan deya olamiz. Ushbu roman orqali chinakam o'zbek otalari qanday bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Asarning ibtidosi xuddi "Dunyoning ishlari" qissasidek "Barcha otalarga bag'ishlanadi" degan jumla bilan boshlanishini o'ziyoq yuqoridagi fikrni tasdiq etadi. Yozuvchining "Ota" romani misolida o'zbek atasining otalik hissi, otalik burchi, otalik hukmi haqiqiy timsol darajasiga ko'tarilgan asarlaridan biri hisoblandi. Ijodkor ixcham roman bag'rida yigirmadan ortiq qahramonlar misolida ota obrazini gavdalantiradi.

Badiiy adabiyotda ota obraziga oid juda ko'plab durdona asarlar yaratilgan. Jumladan, Frans Kafkaning "Ota hukmi", Fridrix Shillerning "Qaroqchilar", Turgenovning "Otalari va bolalar", Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota", Onore de Balzakning "Gorio Ota" va boshqa asarlarni kiritishimiz mumkin. Ota obrazining fojiaiy va murakkab qahramon sifatidagi tasviri Shekspirning "Qirol Lir" asarida Qirol Lir obrazida, qonuniy va insoniy burchlarini ota sifatida bajargan, lekin hissiyotlardan yiroq ota obrazi Lev Tolstoyning "Anna Karenina" da Aleksandr Karenin timsolida, barcha o'z umrini qizalog'ining baxti uchun baxshida etgan, onadan yetim qolgan qizini moddiy va ruhiy jihatdan ta'minlagan ota obrazi Aleksandr Grinning "Alvon yelkanlar" qissasi jamlangan. Turkiy xalqlar adabiyotida ota obrazi ulug'langan obrazlardan hisoblanadi. Qadimgi bitiklardan tortib, folklor namunalari, mumtoz adabiyot silsilalaridan o'tib zamonaviy adabiyotga qadar ota obrazi sayqallanib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida o'zbek otalarining chinakam timsoli sifatida yaratilgan asarlar sirasiga kiradi. Romanda o'zbek otalarining qat'iyatli, oriyatli, matonatli ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchining "Ota" romani misolida o'zbek atasining otalik hissi, otalik burchi, otalik hukmi haqiqiy timsol darajasiga ko'tarilgan asarlaridan biri hisoblandi. Ijodkor ixcham roman bag'rida yigirmadan ortiq qahramonlar misolida ota

obrazini gavdalan tiradi. Asar ikki qismdan iborat bo'lib asar muqaddimasi "Osuda osmon ostida" sarlavhasi ostida boshlanadi va yana huddi shu nom ostida yakunlanadi. Asar bosh qahramoni Po'lat asr odami sifatida turli zamon va makondagi voqealarning tirik guvohi. Ijodkor Po'lat ismini ham bejizga qo'llamagan, ismning o'zidayoq ramz yashiringan. Po'lat ismi-jismiga monand bo'lib, asrning barcha talotumlariga po'latdek iroda bilan kurasha olgan, eng og'ir damlarda ham insoniylik nomiga dog' tushirmagan insonlarning ramziy obrazidir. Po'latning hayot zarbalariga "po'latdek iroda" bilan kurashuvi voqealar rivojining har bir nuqtasida akslanadi. Asarda ikkinchi jahon urushining insonlar boshiga tushirgan qismati Po'latning ayoli – Yog'duga qarata aytgan isyonida bo'rtib ko'rinadi: "dunyodagi hamma narsa: jonliyu jonsiz, yosh-u qari, yaxshiyu-yomon – hamma-hamma mendek, ha, huddi mendek qovjirab qurisin! Men ana qurishni o'z ko'zlarim bilan ko'rishni istayman!"[1]. Anglashiladiki, Po'latni isyonga keltirgan ikkinchi jahon urushining dahshati edi. Onasining qarshiliklariga qaramasdan, urushga odam yetkazib beradigan rayon harbiy bo'limini holi-joniga qo'ymay, urushga qatnashishni xohlagan, Po'lat onasining qistovi bilan Yog'duga uylanadi. Bir oydan so'ng urushga otlangan Po'lat naq urushning o'chog'iga tashlanadi. Po'lat urush dahshatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rgach, urushda eng arzon narsa – insonning joni ekanligiga amin bo'ladi, siyosat haqida aytilgan balandparvoz gaplarning barchasi puch ekanligiga, onasi Oychechak opaning tanbehlariga quloq solmaganiga afsuslanadi va o'z jonini saqlash hamda sevimli yori – Yog'duning yodi uni urush zahmatlariga matonat bilan kurashishiga sabab bo'ladi. Ochlik va sovuqning iztirobi o'zining haddi a'losiga yetkanda, Po'lat o'ylay boshlaydi: "Dushman kim o'zi? O'rmonni to'rt oyoqdan o'rab olgan, yaxshi kiyingan, yaxshi qurollangan, yaxshi boqilgan ikki oyoqli yovmi yoki meni, Nikitani, anavi uchovlonni ichdan kemirayotgan, yemirayotgan ochlik, sovuq va chorasizlikmi?"[2]. Urush zahmatlari jonidan o'tgan Po'latni birgina Yog'duning shirin yodi hayotga qaytarardi. Nihoyat, urush g'alaba bilan tugagach, Po'lat ham oilasining bag'riga keladi, endi sirin hayot boshlayman deganida ursuhda asir tushganlar qamalishi haqidagi qarorga muvofiq sakkiz yilga qamaladi. Urush hamda qamoq Po'latning ham jisman, ham ma'nau zaiflashtiradi, uning hayotida birgina Yog'dugina uni hayotga bo'lgan muhabbatini oshiradi. Asar qahramonlariga berilgan ismlarga ham ijodkor mohirona ramziy ma'no yuklay olgan. Jumladan, Yog'du chin ma'noda Po'lat hayotini yorug'likka boshlagan qahramon, Yog'du chinakamiga Po'latning hayotiga nur berib turuvchi, hayot yo'llarini yorituvchi yorug'lik edi, nayinki Po'latning balki urushda qatnashgan yorini vafo va sadoqat ila kutgan jamiki o'zbek "yog'dularining" timsoli sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari, Po'latning otasi – O'tkir aka. Ismi jismiga mos, har qanday vaziyatni o'tkirlik, fahm-u farosat bilan hal qiladigan qahramonlardan, voqealar rivojida bu holat o'z tasdig'ini topib boradi. dabiyyotshunos A.Rasulov: "Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, bezagi, o'zligi. Uslub – yozuvchi falsafasi in'ikosi"[3], – deganda haq edi. Nazarimizda, yozuvchimiz bu romanda obrazlar yaratishda o'z uslubiga sodiq qolgan holda qahramonlar ismiga ham ramziy ma'no yuklay oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, o'zbek xalqida oila farzandning quvonchi o'zgacha baxt, qahramonimiz Po'lat esa o'n besh yildirki, tinoqqa zor. Asardagi qurib borayotgan ekinzor tasvirida ramziy ma'noda Po'latning ruhiy va jismoniy holatini ifoda etgan: "Bularning hech biri uning zulmat bosgan ko'nglini yorituvchi chiroq bo'la olmadi. Po'lat uzukkun tomorqasidagi qurib borayotgan ekinzoriga qadalib o'tirdi, o'tiraverdi .[4] Bu tasvirlardagi zulmat bosgan ko'ngil

va suvsizlikdan qurib borayotgan tomorqa ramziy ma'noda Po'latning ruhiy talotumlar girdobida qolganidan dalolatdir. Po'lat onasining ra'yi bilan farzand tilab ko'p joylarga boradi. Toshkentlik azayimxon Toshdomlarning hiyla-nayranglari, odamlarni aldab kun ko'rayotganini ko'rib, birovning baxtsizligi kimningdir kuniga kor qilayotganini ko'rib azoblanadi. Toshdomlar esa boshqalarning iztirobidan, baxtsizligidan mo'maygina pul ishlab oladigan manfur kimsalarning ramzi sifatida gavdalantiriladi. Po'lat ham hamma qatori osuda hayotda yashashni, baxtiyor bo'lishni xohlardi, ammo hayot unga shunday sinovlar berdiki, uning hamma qatori bo'la olmasligi, yashay olmasligini ko'ramiz. Azoblar, iztiroblar uning irodasini tobladi. Po'latning: "Hayot nima o'zi? Bir kelish – u, bir ketishda. Shu kelib-ketishda ortingdan qoladigan faqat bola. Bola – o'limning yuziga inson tushirgan tarsaki, ortidan farzand qoldiribgina dunyoda men ham borman deya oladi erkak kishi", – deya aytgan alamli iztiroblari fikrimiz isboti bo'la oladi. Asarda yana bir obraz borki, dunyodagi barcha onalar mehr-u muhabbatini ko'rsata olgan. Bu – Oychechak aya obrazi. Oychechak ayaning o'g'lini urushga kuzatishdan avval Po'latni uylantirishga shoshishining o'ziyoq Oychechak aya o'g'lining kelajagidan qayg'urib emas, balki o'g'lini uylantirishi urushga ketganida oilasi borligini his etishi, tirik qolishga majbur ekanligiga ishora edi. Zero, inson o'z oilasiga mehr qo'ymagunicha, Vatanga muhabbatini anglay olmaydi. Oychechak aya Vatan tuyg'usini oilaga muhabbat qo'yish orqali sindirib boradigan o'zbek onalarning timsolidir.

XULOSA

Nihoyat, Po'latning orzusi amalga oshadi, o'n besh yil deganda farzandli bo'lishadi, qiz ularning oilasini quvonchga, sevinchga to'ldiradi, shuning uchun qizga Sevinch deb ism qo'yishadi. Sevinch ismi jismiga monand Po'latning oilasiga chin ma'noda baxt, sevinch olib keldi. Hamma Sevinchning atrofida parvona edi, shuning uchun u erka qiz bo'lib o'sdi. Xalqimizda "Oyning o'n beshi yorug' o'n beshi qorong'u deganlaridek" Po'latning ham yorug' kunlariga orasiga qorong'ulik o'ralaydi, to'satdan Po'latlarning uyiga o't tushadi, sarosimada qolgan uy egalari arang omon qolishadi, lekin Sevinchning bir yuzida bir umrga bu mudhish voqeadan chandiq qoladi, uning bir yuzi kuyib ketadi. Ulg'aygani sari Sevinchning chandig'i ham kattalashib bordi, endi hamma unga ajablanib qaraydigan, o'zini olib qochadigan bo'lgandi. Maktabga ham ilk qadamlarini qo'yganda sinfdoshlari tomonidan rad etilgach, Sevinch maktabga borishni ham tark etadi, ota-onasining daldasi bilangina ta'limni davom ettiradi. Sevinch maktabni bitirgach, oliy o'quv yurtiga o'qishga kiradi va shifokorlik kasbini egallashga astoydil bel bog'laydi. Sevinch ota-onasiga o'qish yuzasidan olti oyga malaka oshirish uchun xorijga borishga ruxsat oladi. Po'lat otani hamma hurmat qilib uni mahalla oqsoqoli qilib qo'yishgan edi, kunlarning birida Erboy Po'lat otaga qizining Asakada tug'ruqxonada ekanligi, qizi uning yuziga oyoq bosganini eshitgach vajohat bilan Yog'du onaning oldiga keladi. Po'lat otaning alamli nidosi: "Meni sotdilaring! Adoyi tamom qildilaring! Hammasi, hammasi... butun umrim bekor ketdi, bekor!!!". Ijodkor so'z takroridan unumli foydalanib, Po'lat otaning iztirobini kitobxonga bo'rttiradi. Lekin Po'latni Alloh farzand bilan berib, farzand bilan azoblaydi. Bu azob ayol sha'nini, erkaklik g'ururini himoya qilishdan ham og'ir va azobli edi. Sevinchning Erboy kabi manfur kimsalarning qo'lida majruhga aylanishi Po'lat uchun farzand dog'idan ham ayanchli edi. Erboy o'z nafsiga qul bo'lgan, hayotni faqat qora bo'yoqlarda ko'radigan, hatto yosh, murg'akka ham azob berishdan tap tortmaydigan manfur kimsalarning ramziy timsollaridir. Turmush degan yo'lning bekatlaridan o'ta-o'ta Po'lat qanday qilib Po'lat ota, Yog'du esa qanday qilib Yog'du ona

bo'lganini, odamlar ularni shunday atay boshlaganini ham sezmay qolishdi. "Ota" romani so'ngida huddi "Isyon va itoat"da bo'lgani singari Po'lat hayotidagi shuncha talotumlardan, iztirob va isyonlardan so'ng itoatga keladi: "Menga bergan hayotning ham xuddi qizim Sevinchniki kabi ikki yuzi bor ekan: bittasi g'oyat go'zal, sevimli bo'lsa, ikkinchisi esa, yana o'sha, qizimning olovda kuyib badbashara holga kelgan yuzidek. Endi menga qismatimning ikki beti ham, huddi qizimniki kabi qadrdon".

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ҳамдамов У. "Ота". Т.: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 20.
2. Ҳамдамов У. "Ота". Т.: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 40.
3. Расулов А. Бадиийлик-безавол мезон.
4. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. –Т., 2006..
5. Норматов У. Нафосат гурунглари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – 389 б;
6. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б;
7. Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 120 б;
8. Болтабоев Ҳ, Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи (1-жилд) – Тошкент: Mumtoz so'z, 2013. – 400 б;
9. Ҳаққулов И. Ижод иқлими. – Тошкент: Фан, 2009. – 394 б;
10. Қахрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 184 б;
11. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 546 б;
12. Қуронон Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 287 б;

INNOVATIVE
ACADEMY